

«KONSTRUKTOR» OMONAT SHARTNOMASI – OMMAVIY OFERTA

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur hujjat «ASIA ALLIANCE BANK» ATB tizimida joriy bank hisobvarag‘i egasi hisoblangan jismoniy shaxs bilan quyida Omonatchining o‘zi tomonidan Omonat shartnomasiga 1-ilovada ko‘rsatilgan shartlardan belgilangan shartlarda omonat shartnomasini tuzish yuzasidan «ASIA ALLIANCE BANK» ATB (bundan buyon matnda – «Bank») rasmiy taklifi (ommaviy ofertasi) hisoblanadi.

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 369-moddasining 2-bandiga muvofiq, quyida qayd etilgan shartlar qabul qilingan va omonat summasini ALLIANCE mobil banking tizimida (bundan buyon matnda – «Tizim») belgilangan bank hisobvarag‘idan (bundan buyon matnda – «bank hisobvarag‘i») mazkur Shartnomaga asosan ochiladigan omonat hisobvarag‘iga (bundan buyon matnda – «omonat hisobvarag‘i») o‘tkazish bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun kerakli barcha nazarda tutilgan harakatlar Tizimda amalga oshirilgan holda, mijoz – mazkur oferta aktseptlanishini amalga oshiradigan jismoniy shaxs Omonatchiga aylanadi (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 370-moddasining 4-qismiga muvofiq oferta aktseptlanishi ofertada belgilangan shartlarda shartnomma tuzilishiga tengdir), Bank va Omonatchi esa birgalikda – mazkur Shartnomaning Taraflariga aylanadi.

1.3. Tizim orqali shakllanadigan Omonatchi omonat summasini belgilaydigan va o‘z bank hisobvarag‘idan omonat hisobvarag‘iga pul mablag‘lari hisobdan chiqarilishi uchun topshiriq beradigan ariza mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.4. Omonatchi mazkur ommaviy ofertaga o‘tishidan oldin tizimda tanlaydigan 1-ilovada ko‘rsatilgan omonat shartlari mazkur ommaviy ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.5. Omonatga pul mablag‘larini o‘tkazish ochiladigan omonatning tegishli valyutasidagi depozit hisobvarag‘idan amalga oshirilishi mumkin.

1.6. Bank tomonidan ommaviy oferta aktsepti olingan va Omonatchining omonat hisobvarag‘iga pul mablag‘lari o‘tkazilgan paytdan boshlab Bank va Omonatchi o‘rtasida Shartnomma tuzilgan hisoblanadi.

1.7. Oferta aktsepti – Omonatchi tomonidan mazkur ommaviy oferta va mazkur ommaviy ofertaning ajralmas qismi hisoblangan tanlangan omonat shartlari to‘liq va so‘zsiz qabul qilinishini (shartlarga rozilagini) anglatadi.

1.8. Bank hisobvarag‘idan omonat hisobvarag‘iga omonat summasini o‘tkazishga doir operatsiyalar amalga oshirilganligi fakti bo‘yicha Tizim tomonidan shakllanadigan tasdiqnama Shartnomma tuzilganligini va Omonatchining hisobvarag‘iga omonat bo‘yicha pul mablag‘lari o‘tkazilganligini tasdiqllovchi hujjati hisoblanadi. Omonatchi tizimda Omonat ochilganligi to‘g‘risida tasdiqnama, shuningdek Tizimda ro‘yxatdan o‘tkazilgan mobil telefon raqamiga SMS-xabarni oladi.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Omonatchi mablag‘larini masofadan turib Tizim orqali depozitga joylashtiradi, Bank esa mablag‘larni omonatchining bank hisobvarag‘idan kirim qilish yo‘li bilan omonatga qabul qiladi hamda mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan Omonatchi tomonidan belgilangan Omonat shartlarida va tartibda omonatni qaytarish, foizlarni to‘lash majburiyatini oladi. Omonat shartlarida Omonat nomi, turi (jamg‘arma/muddatli), valyutasi, muddati, foiz stavkasi, eng kam miqdori, Omonatni to‘ldirish va qisman qaytarish, foizlarni to‘lash tartibi, Omonatni muddatidan oldin yopish shartlari ko‘rsatiladi.

2.2. Omonat hisobvarag‘ining rekvizitlari Tizimning «Mening omonatlarim» bo‘limida aks ettiriladi va omonat bo‘yicha quyidagi ma’lumotni o‘z ichiga oladi: omonat nomi, omonat turi va valyutasi, omonat ochilgan Bank filiali nomi, omonat ochilgan va qaytariladigan sana, omonatning

boshlang‘ich summasi, omonat bo‘yicha yillik foiz stavkasi, omonatning joriy summasi, joriy hisoblangan foizlar, bank hisobvarag‘i raqami, foizlarni hisobga olish hisobvarag‘i, omonat yopiladigan muddatigacha qolgan kunlar soni.

3. HISOB-KITOBLAR TARTIBI

3.1. Omonat summasiga foizlar yiliga 365 kun hisobidan har kuni, omonat hisobvarag‘iga pul mablag‘lari o‘tkazilgan kundan keyingi kundan Omonatchiga omonat qaytariladigan yoxud qonun hujjatlari yoki Shartnomada belgilangan boshqa asoslar bo‘yicha omonat Omonatchining hisobvarag‘i hisobidan chiqariladigan kungacha hisoblanadi.

3.2. Omonatdagi pul mablag‘lari xatlangan davr davomida foizlar hisoblanmaydi.

3.3. Omonat qaytarilishi omonat muddati tugagan kundan keyingi kunida Bank tomonidan amalga oshiriladi.

3.4. Omonat qaytarilishi omonat muddati tugagunga qadar Omonatchining talabiga ko‘ra amalga oshirilgan holda omonat bo‘yicha hisoblangan foizlar Omonatchi tomonidan belgilangan

3.5. To‘lanadigan foizlar, shuningdek Omonat summasi Omonatchi tomonidan Tizim orqali yoki Tizimda ko‘rsatilgan Bank bo‘linmasiga shaxsan murojaat qilgan holda yozma ariza berish orqali talab qilib olinishi mumkin. Omonat summasi va/yoki foizlar talab qilib olinganida Omonatchi mustaqil ravishda Tizimda to‘lanadigan foizlarni o‘tkaziladigan depozit hisobvarag‘ini, shuningdek Omonat summasini belgilaydi.

3.6. Shartnomaning amal qilish muddati tugaganidan so‘ng Omonatchi Tizimda o‘zi belgilagan hisobvaraqlari pul mablag‘larini o‘tkazish orqali Tizimdagи omonatini yopadi. Agar Shartnomaning amal qilish muddati tugaganidan so‘ng omonat tegishli foizlar bilan Omonatchi tomonidan talab qilib olinmasa, mazkur Shartnomaga muddati Bank Tariflari bilan belgilangan amaldagi talab qilib olinguncha saqlanadigan depoziti bo‘yicha belgilangan foiz stavkasi bilan talab qilib olinguncha saqlanadigan depoziti shartlarida uzaytiriladi.

4. TARAFLAR MAJBURIYATLARI

4.1. Bank mazkur Shartnomaga asosan quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

- Omonatchiga Bankka omonatni ochish va qaytarish masalalari bo‘yicha murojaat qilganida maslahat berish;

- Omonatchidan omonatga pul mablag‘larini qabul qilish va Shartnomada nazarda tutilgan shartlarda va tartibda Omonat summasiga foizlar to‘lash;

- Omonatchining birinchi talabiga asosan mazkur Shartnomaning 3.5,3.6-bandlarida belgilangan tartibda undan qabul qilingan omonat summasini qaytarish yoxud omonatchining topshirig‘iga asosan omonat summasini boshqa usulda tasarruf etish;

- omonat siriga, omonat hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalar va Omonatchi to‘g‘risidagi ma’lumotlar siriga rioya qilish, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari belgilangan tartibda uchinchi shaxslarga ma’lumot taqdim qilinishi bundan mustasno;

- qonun hujjatlari jismoniy shaxslar bilan tuziladigan bank omonat shartnomalariga doir boshqa talablarni bajarish.

4.2. Omonatchi mazkur Shartnomaga asosan quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:

- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari belgilangan depozit hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish tartibiga rioya qilish;

- o‘z familiyasi, ismi, otasining ismi, turar-joy manzili, passport ma’lumotlari/ shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat ma’lumotlari, aloqa uchun telefon raqamlari, shuningdek mazkur Shartnomani tuzishda Omonatchi tomonidan taqdim qilingan boshqa ma’lumotlar o‘zgarishlari haqida Bankni bunday o‘zgarishlar yuz bergan paytdan e’tiboran o‘n ish kuni mobaynida xabardor qilish. Pasport ma’lumotlari/ shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat ma’lumotlari o‘zgargan holatda

Bankka shaxsini tasdiqlovchi yangi hujjatni taqdim qilish (o‘z familiyasi, ismi yoki otasining ismi o‘zgargan holatda, qo‘sishma ravishda ushbu ma’lumotlar o‘zgarganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish);

- Bankning rasmiy talabnomasiga asosan tegishli talabnomalar olinganidan so‘ng 5 (besh) kalendar kunidan kechiktirilmagan holda O‘zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qonuniylashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq qo‘sishma hujjatlarni (ma’lumotlarni) taqdim qilish;

- Omonatchi omonat muddati tugagunga qadar omonat qaytarilishini talab qilishni istagan holda u omonat olinishi mo‘ljallangan sanagacha 1 (bir) oydan kechiktirilmagan holda Bankni o‘z niyati haqida xabardor qilishi shart. Bildirish xati Bankka Tizim orqali yoki Omonatchi tomonidan Tizimda ko‘rsatilgan Bank bo‘linmasiga yozma ariza berish orqali yuborilishi mumkin (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 762-moddasi, 5-qismi).

5. TARAFLAR HUQUQLARI

5.1. Bank mazkur Shartnomaga asosan quyidagi huquqlarga ega:

- Omonatchi omonatni qaytarish to‘g‘risida talabnomalar qilgan holatda pul mablag‘lari mavjud bo‘lishini va uning ushbu pul mablag‘laridan to‘siqlarsiz foydalanish huquqini kafolatlagan holda, Omonatchining mavjud pul mablag‘laridan moliyaviy resurslar manbai sifatida foydalanish;

- xato kirim qilingan pul mablag‘larining omonat hisobvarag‘idan aktseptsiz (Omonatchining ruxsatisiz) hisobdan chiqarib olinishini amalga oshirish;

- Omonatchidan O‘zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qonuniylashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq hujjatlar taqdim etilishini talab qilish.

5.2. Mazkur shartnomaga asosan Omonatchi quyidagi huquqlarga ega:

- omonatdan va omonat bo‘yicha hisoblangan yozilgan foizlardan shaxsan yoki O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi o‘z vakili orqali foydalanish;

- mazkur Shartnomaning 3.3-bandida belgilangan muddati tugaganidan so‘ng omonat summasini va tegishli foizlarni talab qilib olish;

- omonatdagi pul mablag‘laridan (omonat summasi va hisoblangan foizlardan) pul mablag‘lari qoldig‘i doirasida foydalanish;

- Shartnomani muddatdan oldin bekor qilish, mazkur Shartnomaning 3.4-bandida belgilangan shartlarda omonatni qaytarish va hisobvaraqlari yopish.

6. TARAFLAR JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar mazkur Shartnomada bo‘yicha o‘z majburiyatlari bajarilmaganligi uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

6.2. Bank tomonidan mazkur Shartnomada belgilangan muddatlarda Omonatchining omonatni yoki uning qismini qaytarish to‘g‘risidagi talabi bajarilmagan holatda Bank Omonat bo‘yicha foizlar to‘lovidan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 327-moddasiga muvofiq etkazilgan zararlar o‘rnini qoplashi shart.

6.3. Bank ushbu Shartnomada bo‘yicha majburiyatlarni favqulodda vaziyat holatlari yoki o‘ziga olingan majburiyatlar bajarilishiga to‘sinqil qiladigan uning boshqaruvidan tashqaridagi vaziyatlar ta’siri oqibatida mazkur Shartnomada bo‘yicha o‘z majburiyatlari bajarilmaganligi uchun javobgar bo‘lmaydi.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Mazkur Shartnama tuzilgan kundan e'tiboran qonuniy kuchga kiradi (mazkur Shartnomaning 1.5-band) va Tizimda ko'rsatilgan hisobvaraqdan omonatning butun summasi yoki uning qismi Omonatchiga berilgan paytdan boshlab amal qilishni to'xtatadi. Mazkur Shartnomaning amal qilishi to'xtatilganida Tizimda ko'rsatilgan omonat bo'yicha hisobvaraq yopiladi.

7.2. Bankka Omonatchi shaxsan murojaat qilgan holatda omonat bo'yicha pul mablag'larining to'lanishi, shuningdek Bank tomonidan omonat bo'yicha ma'lumotning taqdim qilinishi Omonatchi tomonidan taqdim qilingan shaxsini tasdiqlovchi hujjat asosida amalga oshiriladi.

7.3. Mazkur Shartnomaga barcha o'zgarish va qo'shimchalar yozma shaklda rasmiylashtirilishi va Taraflar tomonidan imzolanishi kerak.

7.4. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan barcha masalalar bo'yicha Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariiga rioya qiladilar.

7.5. Mazkur Shartnama bo'yicha da'volashuvlar amaldagi qonun hujjatlarda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

7.6. Omonat qaytarilishi Bankning barcha mulki bilan ta'minlanadi.

7.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida fuqarolarning omonatlarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4057-sonli Farmoniga muvofiq, tijorat banklarida depozit hisobvaraqlariga ega fuqarolarning omonatlari bo'yicha haq to'lovi omonatlarning miqdoridan qat'iy nazar to'liq hajmda kafolatlanadi.

7.8. Bank tomonidan Omonatchiga barcha bildirish xatlari Tizim orqali yoki Bankka so'nggi ma'lum bo'lgan manzil bo'yicha bildirish xatini o'z ichiga olgan buyurtma xati bilan yuboriladi.

7.9. Omonatchi omonat shartlari bilan tanishib chiqdi va ularga rozilik bildirdi.

7.10. Mazkur Shartnama bilan hal qilinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan hal qilinadi.

8. BANK YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI:

«ASIA ALLIANCE BANK» ATB

Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani,
Maxtumkuli ko'chasi, 2a,

STIR: 207018693

OKED: 64190 OKPO: 22921172

Bank rekvizitlari:

h/r 2980200000001095001

MFO: 01095

tel.: 71-231-60-00

Imzo: _____
M.O'.